

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОNUНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ	SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL	НАУЧНО АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
--------------------------------------	--	--

**2024
№1-2**

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ**БОШ МУҲАРРИР:****Гулямов Сайд Саидахаррович** – юридик фанлари доктори, профессор.**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:**

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович – ю.ф.д., профессор.

Хўжаев Шоҳжакон Акмалжон ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқолов Омонбай – ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёкубович – ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович – ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаева – ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоеvич – ю.ф.д., доц.

Беков Иҳтиёр – ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Соҳибжонович – ю.ф.д., проф. в.б.

Хазратқулов Одилбек Турсунович – юридик фанлари номзоди, доцент.

Самархонжонов Ботир Билилович – ю.ф.д., профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович – ю.ф.д., профессор.

Нарзиев Отабек Саъдиевич – ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун куйидагиларга мурожат этиш сўралади:

Гулямов Сайд Саидахаррович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон нусхаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

**Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Махкамасининг Олий Аттестация
комиссияси журналлари рўйхатига киритилган.**

Ушбу журналда баён этилган натижалар, холосалар, талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб, Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик университети сиёсати ёки фикрини акс эттирмайди.

2023 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик университетига тегишли. Барча ҳуқуклар химояланган. Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва кўпайтириш Тошкент давлат юридик университети рухсати билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент давлат юридик университетига муроҳаат этилади. Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**Нашриёт мухаррири: **Н. Ниязова**Техник мухаррир: **Д. Козимов**

Лицензия № 02-0074

Босишига руҳсат этилди – 30.06.2024

Нашриёт ҳисоб табоғи – 5

«IMPRESS MEDIA» босмахонасида босилди

Адади – 100 нусха.

**ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ
ЖУРНАЛ****1-2/2024****МУНДАРИЖА****Б.Акмалхонов**

Международно-правовые гарантии защиты собственности во время вооруженных конфликтов 5

М.Истамов

Ўзбекистонда сайлов жараёни иштирокчилари ва уларни мақомига оид қонунчиликнинг шаклланиш босқичлари 7

М.Турдиалиев

Legal issues of intellectual property law in digital era: key legal issues and digital landscape 11

Ш.Муродуллаев

Текущее состояние накопительной пенсионной системы в Узбекистане: анализ и заключение 15

Д.Аликулов

O'zbekistonda inklyuziv ta'limi huquqiy asoslari takomillashtirish masalalari 17

М.Тургунбоеva

Intellectual mulkda mualiflik huquqini tartibga solish tendensiyalari: nazariy va amaliy tahsil 20

Д.Авезов

Маҳаллий кенгаш депутатининг ваколатини муддатидан илгари тугатишга оид қарашларнинг ҳуқуқий таҳлили 24

А.Норкулов

Виртуал оламнинг янги обьекти сифатида эмодзилар ва уларни ҳуқуқий тартиби солишининг аҳамияти 28

Turgunboyeva Mamuraxon Kozimjon qizi
TXVU tadqiqot assistanti

INTELLEKTUAL MULKDA MUALLIFLIK HUQUQINI TARTIBGA SOLISH TENDENSIYALARI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

Abstract: This article examines current copyright law and how well it complies with court decisions. It also describes the changes the author has made to copyright law and the reasons for them in line with international norms. This article also covers the content of copyright law, the need for amendments, and the international conventions that have been developed.

Keywords: Copyright, Decision, Compensation, Term, Practice.

Аннотация: В этой статье рассматривается текущая практика авторского права и то, насколько хорошо она соответствует решениям суда. Кроме того, в статье описаны изменения, внесенные автором в законодательство об авторском праве и их причины в соответствии с международными нормами. Также в данной статье освещено содержание законодательства об авторском праве, необходимость внесения поправок и разработанные международные конвенции.

Ключевые слова: Авторское право, решение, компенсация, срок, практика.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mualliflik huquqining amaldagi tartiblari va ular sud qarorlariga qanchalik rivoj qilishlari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqola muallif tomonidan mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlarga kiritilgan o'zgartirishlar va ularning sabablari xalqaro normalarga muvofiq tasvirlangan. Shuningdek mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun hujjalarning mazmuni, tuzatishlar kiritish zarurati va ishlab chiqilgan xalqaro konvensiyalarining barchasi ushbu maqolada yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mualliflik huquqi, qaror, kompensatsiya, muddat, amaliyat

I. Kirish

Muallif ma'lum asarni yaratish yekan, ushbu asar uning eng yaqin hamrohiga aylanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zotan, biror asarning yaratilishi shunchaki sodir bo'ladigan oddiy jarayon emas. Muallif asar yaratilishida eng qadrlar ne'mat bo'lgan umrini, shuningdek bor kuch-g'ayratini sarflaydi. Yillab izlanishlar va qattiq mehnat ortidangina manaviy boylik bo'la oladigan asarlar dunyoga keladi. Ana shunday asarlarga butun jamiyatga foyda keltira oladi. Tabiiyki, muallif o'z yaratgan asaridan yetarli darajada ma'nnaviy va albatta moddiy manfaatdor bo'lsa durdona asarlar soni ko'payadi.

Mualliflik huquqi deyilganda fan, adabiyot, san'at sohasida yaratilgan ijodiy faoliyat natijalari hamda turdosh huquqlar tushuniladi.

Mualliflik huquqi intellektual mulkning boshqa obyektlari, jumladan tovar belgilari, ixtiro, foydali model,

sanoat namunasi va hokazolar kabi ro'yxatdan o'tkazilmaydi, aksincha mualliflik huquqi uning yaratish fakti bilan yuzaga keladi. Mualliflik huquqining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun asarni ro'yxatdan o'tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rivoj etish talab qilinmaydi.

Shu munosabat bilan mazkur huquqlarning buzilish holatlari aniqlash tovar belgisi kabi obyektlarga bo'lgan huquqlarning buzilishi holatlari nisbatan murakkabdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 20-avgustida imzolangan 709-sonli "Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq mualliflik huquqiga oid bir nechta normativ huquqiy hujjalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 35-moddasiga o'zgartirish kiritilib, bundan buyon mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qilishi belgilandi. Avvallari ushbu muddat 50 yilni tashkil etgan. Shuningdek, ushbu Qonunning 65-moddasiga o'zgartirish kiritilib, bundan buyon muallif, turdosh huquqlar egasi yoki mutlaq huquqlarning boshqa egasi huquqlari buzilgan taqdirda huquqbuzardan zararlar yetkazilishi faktidan qat'iy nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to'lanishi lozim bo'lgan tovoni to'lashni talab qilishga haqli yekanligi belgilandi.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Ushbu kiritilgan o'zgartirishlar zamirida qanday zaruriyat bor? O'zgartirish kiritishdan maqsad nima yedi?

Avvalo, mualliflik huquqining amal qilish muddatining 70 yil yetib belgilanishi haqida fikr yuritamiz.

II. MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, har bir ijodkor asar yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar yekan, avvalo, ma'nnaviy boylik yaratishni va shu orqali jamiyatga foyda keltirishni, shuningdek ushbu asardan moddiy manfaatdor bo'lishni ko'zlaydi. Shuningdek, ijodkor o'zi qilgan mehnatining natijasidan bahramand bo'lishi undagi ishtiyoqning kuchayishiga sabab bo'ladi. Moddiy manfaatdorlik yesa, ijodkorga iqtisodiy muammolarga chalg'imasdan yanada yaxshiroq asarlar yaratishiga imkon yaratadi, ya'nniki yendi unda asar yaratishga, bor e'tiborini ijodga qaratishga yetarlicha vaqt paydo bo'ladi.

Mualliflik huquqi muddatinining uzaytirilishi yesa aynan shu moddiy manfaatdorlikning nafaqat ijodkor tomonidan, balki uning merosxo'rlari tomonidan ham foydalanish imkoniyatini vujudga keltiradi. Bunday imkoniyat yesa ijodkorda qilingan mehnatlar samarasining nafaqat o'z manfaatlari, balki keyingi avlod vakillari uchun ham foydali yekanligi hissini uyg'otadi.

Bundan tashqari, mualliflik huquqi amal qilish muddatining uzaytirilishi kreativ ijod namunalarining yarat-

lishiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, mualliflik huquqi obyektlarini o'zlashtirib olish yoxud qonunga xilof ravishda foydalanish qonunchilikka ko'ra jinoiy hamda ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi. Aynan ushbu norma mualliflar tomonidan o'zga mualliflarning ijod namunalarini o'zlashtirish yoki qonunga xilof ravishda foydalanishdan tiyilishga chaqiradi. Tabiiyki, o'zgalarning ijod namunalaridan o'zlashtirish orqali yaratilgan asarlarga nisbatan ta'qiq mavjud yekan, ushbu ta'qiq ijodkorlarni faqatgina yangi va original san'at asarlarni yaratishga undaydi.

Ilg'or xorijiy mamlakatlarda mualliflik huquqining amal qilish muddatlariga e'tibor qaratar yekanmiz, Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan deyarli barcha davlatlarda ushbu muddat muallif vafotidan so'ng 70 yilni tashkil yetishiga guvohi bo'lamiz. Shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari, Avstraliya hamda Skandinaviya davlatlari bo'lgan Norvegiya, Shvetsiya, Daniyada ham muddatlar 70 yilni tashkil etadi.

Demak, mualliflikning amal qilish muddatini uzaytirishdan asosiy maqsad ijod mahsullaridan yanada uzoqroq muddatda, ya'nı muallif tomonidan hayoti davomida, shuningdek uning merosxo'rlari tomonidan manfaatdor bo'lishni ta'minlash. Bundan tashqari, xorijning ilg'or tajribasidan keng foydalangan holda yangi va original asarlarning yaratishga zamin yaratishdir.

Mualliflarning huquqlarini himoya qilishga oid qonunchilikka kiritilgan navbatdagi o'zgarish bu mualliflarning huquqlari buzilgan taqdirda huquqbuzardan zararlar yetkazilishi faktidan qat'iy nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib yangi tartibdagi tovon to'lashni talab qilish imkoniyatini yaratilganligidir. Ushbu normadan ma'lumki, endilikda mualliflik huquqlari buzilgan shaxs tomonidan buzilgan huquqlarini tiklash bilan birgalikda huquqbuzardan belgilangan miqdorda tovon undirishni talab qilish imkonni ham paydo bo'ldi. Avvalari ushbu tartibdagi ishlarni hal etishda huquqbuzarga javobgarlik yuzasidan kelib chiqqan jarima qo'llangan bo'lib, ushbu jarima davlat foydasiga undirilgan. Muallifga esa o'z huquqlarini tiklanganligi, shuningdek yetkazilgan zararni undirish bo'yicha fuqarolik sudiga murojaat etish kerakligi tushuntirilgan xolos. Sudlar tomonidan esa yetkazilgan zararning aniq miqdorini aniqlashda bir munkha qiyinchilikka duch kelingan. Mualliflik huquqi obyektlarining turlari har xil bo'lgani sababli ularga yetkazilgan zararni aniqlash murakkab jayayonga aylangan. Endilikda yangi tartib bilan, muallif o'zining buzilgan huquqlarini tiklash asnosida mo'maygina daromadga (hozirgi vaqtida 5 mln 400 mingdan 270 million so'mgacha) ega bo'lishi mukin. Joriy qilingan yangi tartibning yana bir qulayli jihat, tovon miqdorining aniq ko'rsatilganidadir. Endilikda, yetkazilgan zararning miqdorini aniqlashda eng kam va eng ko'p miqdorlar mavjud bo'lib, sud tomonidan zarar miqdorini aniqlash aniq jayayonga aylandi. Jumladan, mualliflik huquqi va turdosh huquqlari buzilgan taqdirda, bunday huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslardan zarar qoplanishi o'rning bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravirgacha miqdorda tovon to'lashini talab qilish huquqi

berildi. Bu esa o'z navbatida mualliflik huquqlari buzilgan shaxslarning huquqlari tiklanishi jarayonini yangi pog'onaga olib chiqilishidir.

Ma'lumot uchun xorijiy davlatda mualliflik huquqlarini buzganlik uchun tovon miqdorlari quyidagicha:

Amerika Qo'shma Shtatlari "Mualliflik Qonuni" (Copyright Act)ga ko'ra, ushbu kompensatsiya miqdori 750 AQSH dollaridan 30.000 AQSH dollarigacha, agar zarar yetkazilishi davom etsa 150.000 AQSH dollarigacha summani tashkil yetadi.1 Kanadada esa ushbu miqdor 500 dan 20.000 gacha Kanada dollarini tashkil etadi. Shuningdek, Singapurda ushbu miqdor birmuncha baland bo'lib, 10.000 AQSH dollaridan 200.000 AQSH dollariga cha bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

III. MILLIY TAJRIBA

Agar ma'lum bir tovarning original yoki kontrafakt ekanligini ko'z bilan aniqlash imkonи bo'lsa, asarlarning kontrafakt nusxalarini farqlashning esa har doim ham iloji yo'qdir. Chunki, asarning kontrafakt nusxasi deyilganida huquq egasi, ya'nı muallifning ruxsatsiz takrorlangan asar nusxasi tushuniladi. Ayrim holatlarda nashriyotlar muallif bilan tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan kitob adadidan ortiqcha kitob nusxalarini muallifning roziligidiz chop etgan holatlari ko'plab uchraydi. Bunday holatlarda asarning original yodus kontrafakt nusxasini aniqlashning imkonи yo'q.

Misol uchun, Agentlik tomonidan muallif S.Hafizovning murojaati ko'rib chiqilgan bo'lib, ushbu murojaatda muallif ga tegishli "Ingliz tili grammatikasi" nomli asar "Y.K." nomli nashriyot tomonidan muallif bilan tuzilgan shartnomada belgilangan kitobning adadidan ko'p miqdorda tayyorlagan hamda sotuvga taqdim etgan. Bunday holatlarda huquqbazarlik sodir etilganligini va asarning kontrafakt nusxalari tarqalganligini faqatgina muallifning o'zi aniqlay oladi.

Shu sababli Agentlik tomonidan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasi bo'yicha ko'rilgan ko'plab ishlar asosan mualliflar va huquq egalari tomonidan o'zining buzilgan huquqlarini tiklash maqsadida qilingan murojaati asosida amalga oshirilgan.

Buning isboti sifatida tariqasida keltirib o'tsak:

1. ASAXIY BOOKS" mas'uliyatи cheklangan jamiyatining murojaatiga asosan jamiyatga litsenziya shartnomasi asosida tegishli muallif Uolter Ayzeksonning "Stiv Jobs" nomli asarning o'zbek tilidagi tarjimasi huquq egasining roziligidiz yoki muallif bilan shartnoma tuzmagan holda ijtimoiy tarmoqlardagi ayrim sahifalarda tarqatilayotganligi hamda kitob do'konlarida ushbu asarning kontrafakt nusxalari sotilayotganligi aniqlandi. Ushbu holat bo'yicha Agentlik tomonidan tegishli choralar ko'rilib, asarning ijtimoiy tarmoqda tarqatilayotgan kontrafakt nusxalari olib tashlandi.

Ushbu holat bo'yicha Agentlik tomonidan tegishli choralar ko'rilib, asarning ijtimoiy tarmoqda tarqatilayotgan kontrafakt nusxalari olib tashlandi.

2. Rossiya Federatsiyasining "Luch" ishlab chiqarish kooperativi murojaatiga asosan ushbu kooperativ tomonidan ishlab chiqariladigan "Klassika" nomli mahsulot qadog'ining grafik-dizayni "U. K. L." MChJ tomonidan huquq

егасининг ruxsatisiz foydalanimlib kelinayotganligi holati bo'yicha Agentlik tomonidan tegishli chora ko'ildi va ushbu holat bartaraf etildi.

3. Agentlik tomonidan fuqaro K. Matyoqubovning mualliflik huquqlarining buzilishi holati yuzasidan qonuniy chora ko'rish to'g'risidagi murojaatiga asosan "F.N" nomli nashriyot tomonidan muallif K. Matyoqubov tarjimasidagi Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi" asari muallifning roziligidisiz, tegishli yozma shartnoma tuzmagan holda chop etilganligi, shuningdek buning uchun muallifga tegishli mualliflik haqni to'lanmaganligi holati aniqlandi. Holat bo'yicha nashriyot rahbariga taqdimnomma yuborilib, muallif va nashriyot o'rtasida muallifga 25 million so'm miqdorida mualliflik haqini to'lاب berish bo'yicha shartnoma tuzildi. Yuqorida keltirilgan misollardan shuni anglashimiz mumkinki, muallif yoki huquq egasi o'z mulkiga nisbatan huquqlar o'zga shaxs tomonidan buzilayotganligini bildimi, albatta buzilayotgan huquqlarini tiklash uchun vakolatli davlat organiga yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarga murojaat qilishi kerak. Zero, qonunchiligidizda "muallifning mutlaq huquqlari" degan tushuncha mavjud bo'lib, asarga nisbatan mutlaq huquqlarni kimgadir berish yoki bermaslikni muallifning o'zi hal qiladi. Shu sababli mazkur sohada mualliflarning buzilgan huquqlarini avvaldan bilishning imkonii mavjud emas.

Jahon tajribasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning alohida o'rni bor. Bunday tashkilotlarning asosiy faoliyat yo'nalishi o'z a'zolarining mulkiy huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Hozirda mamlakatimizda ana shunday beshta jamaot birlashmasi faoliyat yuritmoqda.

Shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yil 20- avgustda imzolangan 709-soni "Intellektual mulk obektlarining huquqiy muhofazasi yana-da takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq mualliflik huquqiga oid bir nechta normativ-huquqiy hujjalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mazkur qonunga muvofiq muallifga mualliflik huquqi va turdosh huquqlari buzilgan taqdirda, bunday huquqbazarlikni sodir etgan shaxslardan zarar qoplanishi o'rniga bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 1000 baravarigacha miqdorda tovon to'lashini talab qilish huquqi berildi.

O'z navbatida, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar ushbu qonunda berilgan huquqdan foydalaniib, o'z a'zolari huquqlarini himoya qilib kelmoqda.

Xususan, 2022-yilning 13-yanvar kuni fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar Yakkasaroy tumanlararo sudi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mualliflik va turdosh huquqlar himoyasi jamiyatining a'zosi shoir Usmon Azim manfaatida javobgar Sanjar Javberdiyevga (Sanjay) nisbatan mualliflik huquqlari buzilishiga chek qo'yish, mualliflik huquqlari buzilganligi uchun tovon puli va ma'naviy zarar undirish to'g'risidagi fuqarolik ishi ko'rib chiqildi.

Mazkur ish yakunida sud tomonidan javobgar Sanjar Javberdiyevdan shoir Usmon Azim foydasiga bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari (54 mln. so'm) miqdorida tovon puli va 40 mln. so'm miqdorida ma'naviy zararni undirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Bundan tashqari, shoir Yo'ichi Ro'ziyev o'ziga tegishli she'riy asardan ruxsatsiz, qonunga xilof ravishda foydalanligi uchun ijrochi Yulduz Usmonovaga nisbatan fuqarolik ishlari bo'yicha sudga da'vo arizasi kiritdi. Natijada sud tomonidan ijrochi Yulduz Usmonovadan shoir Yo'ichi Ro'ziyev foydasiga 185 mln. so'm miqdorida tovon puli undirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Yuqoridagi holatlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, hozirgi rivojlanayotgan fuqarolik jamiyatida ijodkorlar o'zining asarlariga bo'lgan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini qaysidir davlat tashkilotiga shikoyat qilish bilan emas, balki mustaqil ravishda odil sudlov orqali himoya qilishdagi harakatlari ijobji natija ko'rsatmoqda.

Agentlik tomonidan jamiyatda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida muntazam ravishda targ'ibot tadbirlari ham o'tkazib kelinmoqda.

Misol uchun, 2021-yil davomida ommaviy-axborot vositalarida 150 dan ortiq targ'ibot chiqishlari tashkil etildi, ijodkorlar bilan sayyor uchrashuvlar, seminar- trening va davra suhbatlari o'tkazildi. Bundan tashqari, respublikamiz bo'ylab savdo markazlarida, jumladan "Quyoshli", Chorsu savdo majmuasida joylashgan kitob do'konlarida kitoblarning kontrafakt nusxalarini aniqlash va ularning reali-zatsiyasining oldini olishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2021-yil davomida Agentlikning Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish bo'limi (mazkur bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PQ-4965-son qarori asosida tashkil etilgan) tomonidan mualliflarning huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq 90 ga yaqin murojaatlar ko'rib chiqilib, ularning 70 ga yaqini yoki 82 foizi qanoatlanirildi hamda muallif va ijodkorlarning buzilgan huquqlarini tiklanishiga erishildi.

Ushbu holatlardan bir nechtasini quyida misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

1. Fuqaro S.Raxmatovning "Armon" nomli musiqiy asari "NAMANGAN TUMAN BALIQCHILIK" xususiy korxonasi tomonidan "MY5" telekanalida va "Youtube" videohostingida jonli efirga uzatilgan "Omad shou" ko'rsatuvida muallifning roziligidisiz foydalaniyligi yuzasidan qonuniy chora ko'ildi.

2. "YANGI ASR AVLODI" MChJga shartnoma asosida tegishli bo'lgan Rashod Nuri Guntekining "Yashil kecha" asari tarjimasi huquq egasi ruxsatisiz hamda tegishli tartibda shartnoma tuzmasdan 2021-yil 12-avgustdan boshlab 3000 nusxada nashr etilganligi aniqlanib, huquqbuzarga nisbatan sud tomonidan jarima jazosi tayinlandi.

3. "Imron" taxallusi ostida ijod qiluvchi fuqaro O. Tuxtavenvning ishonchli vakili tomonidan yo'llangan murojaat asosida ijodkorga tegishli bo'lgan qo'shiqlarni takrorlagan 8 ta zarar undirish to'g'risidagi fuqarolik ishi ko'rib chiqildi.

veb-sayt egalariga nisbatan taqdimnomalar chiqarildi va asarlar veb-sahifalardan o'chirib tashlandi.

Muallif J. Jovlievning Agentlik Telegram ijtimoiy tarmog'idagi "Ima_monitoring bot" avtomatlashtirilgan murojaatlarni qabul qilish sahifasiga yo'llagan murojaatiga asosan, muallifga tegishli bo'lgan "Qo'rhma" nomli badiiy asarni muallif roziligidiz ijtimoiy tarmoqlarga tarqatayotgan shaxslarga nisbatan tegishli tartibda chora ko'rilib, ushbu asarning kontrafakt nusxalari ijtimoiy tarmoqlardan o'chirtirildi.

1. "VINDICATE TRUST" advokatlik firmasi murojaati asosida "RAGE CORP" mas'uliysi cheklangan jamiyatiga litsenziya shartnomasi asosida tegishli bo'lgan audiovizual asarlardan huquq egasining roziligidiz, qonunga hilof ravishda foydalanayotgan shaxslarga nisbatan tegishli chora ko'rildi va audiovizual asarlarning kontrafakt nusxalari ijtimoiy tarmoqlardan o'chirtirildi. O'zbekiston Respublikasi Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyatiga a'zo bo'lgan huquq egasi T. Asqarning "CUMITE" nomli musiqiy asarini huquq egasining roziligidiz yoki uning mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmagan holda barchanining e'tiboriga yetkazilganligi holati yuzasidan huquqbazarlarga nisbatan tegishli chora ko'rildi.

2. "Master media production and broadcast" mas'uliyi cheklangan jamiyat (Sevimli TV)ga shartnoma asosida tegishli bo'lgan "Chuqur", "Istanbullik kelin", "Ichkarida", "Qora niyat", "Zuleyha" kabi audiovizual asarlardan huquq egasining roziligidiz yoki shartnoma tuzmagan holda barchanining e'tiboriga yetkazish bilan shug'ullanib, moddiy manfaat ko'rib kelgan shaxslarga nisbatan tegishli chora ko'rildi va ushbu audiovizual asarlarning kontrafakt nusxalari ijtimoiy tarmoqlardan o'chirtirildi.

3. O'zbekiston Kino ishlab chiqaruvchilar assotsiyatisining murojaatiga asosan "Kinomaniya" MChJga tegishli "Janob hech kim", "Fox Music Cinema" MChJ ga tegishli "Er bermoq – jon bermoq" nomli audiovizual asarlardan huquq egasining ruxsatsiz foydalaniganligi holati bo'yicha "Mening yurtim" telekanali mas'ul shaxslariga nisbatan tegishli chora ko'rildi.

4. Muallif N. Erkabayevning Agentlik Telegram ijtimoiy tarmog'idagi "Ima_monitoring bot" avtomatlashtirilgan murojaatlarni qabul qilish sahifasiga yo'llagan murojaatiga asosan, muallifga tegishli bo'lgan "Magnit ayol" nomli asarini muallif roziligidiz ijtimoiy tarmoqlarga tarqatayotgan shaxslarga nisbatan tegishli tartibda chora ko'rilib, ushbu asarning kontrafakt nusxalari ijtimoiy tarmoqlardan o'chirtirildi.

Agentlik tomonidan ko'rib chiqilgan murojaatlar orasida, shuningdek chet el mualliflarning huquqlari buzilishiga oid murojaatlar ham mavjud. Jumladan, Qozog'iston Respublikasi fuqarosi I. Sodiqovning O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali o'ziga tegishli asarga nisbatan mualliflik haqini undirish bo'yicha murojaati ko'rib chiqildi va mualliflik haqi undirilishi amaliy yordam berildi. Yuqorida ta'kidlangan choraqtadbirlar va ishlarni bajarish, tabiiyki, inson resurslari hamda vaqtini talab etadi. Agentlikning Mualliflik huquqi va

turdosh huquqlarni himoya qilish bo'limi 2021-yilda tashkil etilganiga, shuningdek cheklangan xodimlar, ya'ni faqat 2 nafar xodim soniga qaramasdan sezilarli natijalarni ko'rsatdi.

Xabaringiz bor, 2022-yil 18-mart kuni davlatimiz rahbarining tegishli farmoniga asosan Agentlik O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tarkibida Intellektual mulk departamenti sifatida qayta tashkil etildi. Mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilishda avval faqatgina 2 nafar xodim ishlagan bo'lsa, endilikda mazkur departament tarkibida butun boshli Mualliflik va turdosh huquqlar boshqarmasi faoliyat yuritishi belgilandi. Ushbu tashkili-yuquqiy islohotlar respublikamizda muallif, ijodkor va san'at vakillarining mualliflik huquqi va turdosh huquqlarini himoya qilish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish hamda keng qamrovli va tizimli amaliyotni shakllantirishda o'zining ijobji ta'sirini ko'rsatadi.

IV. XULOSA

Shuni tan olishimiz kerakki, mazkur sohada hali bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolar anchagina. Holbuki, oxirgi bir yil ichida sohaga oid qonunchilikda ijobji o'zgarishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ushbu o'zgarishlar sohadagi ko'pgina muammolarni qisqa vaqt ichida bartaraf eta olmaydi va tabiiyki, bunday jarayon ma'lum vaqtini taqozo etadi. Zero, qilinayotgan islohotlar o'zining ijobji natijasini berishi uchun avvalo jamiyatimiz bu kabi o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, bunda nafaqat yozuvchilar, san'atkorlar hamda boshqa ijod vakillarining, balki butun xalqimizning huquqiy savodxonlik darajasini oshirish, shuningdek, huquqbazarliklarga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish talab etiladi.

So'zimiz oxirida butun xalqimizga murojaat qilgan holda shuni ta'kidlashimiz lozimki, agarda sizning mualliflik yoki turdosh huquqlaringiz buzilayotgan bo'lsa, huquqlaringizni himoya qilish maqsadida mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarga a'zo bo'ling, shuningdek, tegishli tartibda sudga yoki Adliya vazirligi Intellektual mulk departamentiga murojaat qiling.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, mualliflik huquqi sohasidagi qonunchilikka kiritilgan so'nggi o'zgarishlar, muallif-ijodkorlarning huquqlari yanada samarali himoya etilishiga, ular tomonidan kreativ asarlar yaratilishiga hamda sohada bo'shliqlarning tamoman yo'qolishiga xizmat qiladi.

Shuni tan olishimiz kerakki, mazkur sohada hali bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolar anchagina. Holbuki, oxirgi bir yil ichida sohaga oid qonunchilikda ijobji o'zgarishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ushbu o'zgarishlar sohadagi ko'pgina muammolarni qisqa vaqt ichida bartaraf eta olmaydi va tabiiyki, bunday jarayon ma'lum vaqtini taqozo etadi. Zero, qilinayotgan islohotlar o'zining ijobji natijasini berishi uchun avvalo jamiyatimiz bu kabi o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, bunda nafaqat yozuvchilar, san'atkorlar hamda boshqa ijod vakillarining, balki butun xalqimizning huquqiy savodxonlik darajasini oshirish, shuningdek, huquqbazarliklarga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish talab etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF- 5987-son "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4965-son qarori..
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 20-avgustida imzolangan 709-sonli "Intellektual mulk obektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Qonuni.